XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-89-10-141-K/25 Parkent tumani

Parkent tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qaroriga muvofiq Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Parkent tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **122 043 790 ming so‘m** va xarajatlari esa **122 043 790 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Parkent tuman mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **575 544 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek tuman mahalliy

budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq belgilanganligi tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 834 978 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **4-ilova**ga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **5-ilova**ga;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar **6-ilova**ga;

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha belgilangan koeffitsientlari **7-ilova**ga**;**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar **8-ilova**ga**;**

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar **9-ilova**ga;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar **10-ilova**ga;

Tuman mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **11-ilova**ga;

Parkent tumanidagi jismoniy va yuridik shaxslarning 2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalari **12-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Y. Abduxamidov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.To‘layev), tuman Soliq inspeksiyasi (A.Maxamatov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning ijro etilishini ta`minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Y.Abduxamidov), hamda ijro etilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Sh.Abduvoxidov) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi **TO‘YCHIYEV NAIMJON YUSUPOVICH**

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Parkent tuman budjeti daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Daromad turlari	Jami (ming so‘mda)	Ajratma me`yori
1.	**Qo‘shilgan qiymat solig‘i**	**1 890 700,0**	5%
2.	**Foyda solig‘i**	**443 670,0**	3%
3.	**Aylanmadan olinadigan soliq**	**13 847 000,0**	100%
4.	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i**	**8 453 790,0**	9%
5.	**Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan soliq**	**2 150 000,0**	100%
6.	**Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i**	**16 354 000,0**	100%
7.	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	**10 678 850,0**	91%
8.	**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	**12 707 000,0**	100%
9.	**Yuridik shaxslar yer solig‘i**	**19 417 580,0**	91%
10.	**Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	**29 993 000,0**	100%
11.	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	**2 468 000,0**	100%
12.	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	**2 379 600,0**	100%
	shundan: **Qishloq xo’jaligi korxonalari bo’yicha suv solig’i**	**2 861 000,0**	100%
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	**- 1 144 400,0**	40%
13.	**Davlat boji**	**305 350,0**	5%
14.	**Yig‘imlar**	**148 050,0**	7%
15.	**Jarimalar**	**652 200,0**	5%
16.	**Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari**	**155 000,0**	100%

JAMI DAROMAD	**122 043 790,0**

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Parkent tumani budjetidan 2026-yilgi budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	Summa (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, jami		**122 043 790,0**
1.	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**32 293 728,0**
	shundan: “Mening maktabim” loyihasi uchun	*3 584 400,0*
2.	**Madaniyat bo‘limi**	**14 280 171,0**
3.	**Axborot-kutubxona markazi**	**801 150,0**
4.	**Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi**	**3 957 121,0**
5.	**Sport maktabi**	**5 370 890,0**
6.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**1 539 664,0**
7.	**Veterenariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 859 036,0**
8.	**Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi**	**532 855,0**
9.	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 607 023,0**
10.	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 736 048,0**
11.	**Hokimiyat**	**13 407 299,0**
15.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**22 205 100,0**
16.	**“Mahalla budjeti” jamg`armasi mablag`lari**	**1 620 383,0**
17.	**Zahira jamg‘armasi**	**1 834 978,0**
18.	**Ijtimoiy ko`nikma markazi**	**253 434,0**
19.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**17 744 910,0**

Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2026-yil uchun ajratmalar me`yori

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan		Foyda solig‘i		benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar		Aylanmadan soliq	Davlat boji	Jarima	Yig‘imlar
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB				
1	**Parkent tumani**	**0%**	**5%**	**0%**	**9%**	**100%**	**100%**	**0%**	**3%**	**0%**	**100%**	**0%**	**91%**	**0%**	**91%**	**100 %**	**100 %**	**100 %**	**100 %**	**0%**	**0%**	**100%**	**5%**	**5%**	**7%**

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
4-ilova

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 gektar uchun (noturar obyektlar uchun)
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)
1	Parkent tumani	1.05

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffisiyentlar

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffisiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	**Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun** (turar joylar uchun belgilangan o‘sish myoridan oshmagan holda)
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)
1	**Parkent tumani**	**1.15**

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yilda Yuridik shaxslar bo`yicha mol-mulk soliqlari uchun qo`llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Shahar va tuman	Koeffitsient (mutloq miqdorlari)	Belgilangan qiymat (so`m)
1	**Parkent tumani**	**1.00**	**1 300 000.0**

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha
2026 yilga belgilangan koeffisientlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffisient*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	**Parkent tumani**	**1.05**	**1.05**	**1.05**	**1.05**	**1.00**

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	**Parkent tumani**	1.10	1.15	1.15	1.15	1.10	1.15	1.15	1.15

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
9-ilova

T/r	Tuman va shaharlarnomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	**Tabiiy bezaktoshdan bloklar**	**Marmar**	**Granitlar**	**Gips toshi, gips va angidrid, ganch**	**Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar**	**Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)**
1	Parkent tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.30	1.30

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar*

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
10-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	**Parkent tumani**	**1.10**	**1.00**

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
11-ilova

2026 yilda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so’m

T/r	Hududlar bo‘yicha jami	2026-yil
1	**Parkent tumani**	**575 544,0**

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-89-10-141-K/25 -son qaroriga
12-ilova

Parkent tumanidagi jismoniy va yuridik shaxslarning 2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalari to’g’risida ma`lumot

T/R	Mahalla fuqarolar yig’inlari nomi	*Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan koeffitsient*		*soliq stavkasi*	
		turar	*noturar (yuridik)*	*turar*	*noturar (yuridik)*
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1.	Qizilsoy MFY	1,18	1,08	531,94	4 932,90
2.	Qayilma MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
3.	Istiqlol MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
4.	Istiqbol MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
5.	Yoshlik MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
6.	Guliston MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
7.	Bo'rsiliq MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63
8.	Qirg’izovul MFY	1,18	1,08	531,94	4 932,90
9.	Boyqozon MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
10.	Bodomtepa MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
11.	Beshkappa MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63
12.	Bo'ston MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
13.	Bog’bon MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
14.	Kichikqo’rg’on MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
15.	Qo’lichi MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
16.	Xo'ja MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63

17.	Xurriyat MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
18.	Chashma MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
19.	Chinor MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
20.	Chinorbuloq MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
21.	Chinorli MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
22.	Ulug’bek MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
23.	Cho'qqayma MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63
24.	Yangi Sanganak MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
25.	Yangiobod MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
26.	Said ota MFY	1,18	1,08	531,94	4 932,90
27.	Oydin MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
28.	Tolbuloq MFY	1,18	1,08	531,94	4 932,90
29.	Fayzobod MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
30.	Shampan MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
31.	T.Rizayev MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
32.	Surxi MFY	1,30	1,10	586,04	5 024,25
33.	Kumushkon MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
34.	Kungay MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
35.	Qo’rg’on MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
36.	Qo’rg’ontepa MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
37.	Quruqsoy MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
38.	Qo’shshukur MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
39.	Markaziy MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
40.	Navro'z MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63
41.	Nevich MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
42.	Novdak MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25

43.	Nurobod MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
44.	Obod MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
45.	Oybek MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63
46.	Oqtepa MFY	1,18	1,08	531,94	4 932,90
47.	Olmazor MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
48.	Samarobod MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63
49.	Samsarak MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
50.	Soy MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63
51.	Quyosh MFY	1,20	1,10	540,96	5 024,25
52.	Mozorxoji MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63
53.	Gulbog’ MFY	1,30	1,15	586,04	5 252,63